

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

"Oliy matematika" kafedrasining
№ 4-sonli yig'ilish bayonnomasidan

KO'CHIRMA

18.04.2025

Yig'ilish raisi

Yig'ilish raisi

Qatnashdilar

Denov.sh

M.R.Sobirova-oliy matematika kafedrasini mudiri

E.Eshtemirov- oliy matematika kafedrasini o'qituvchisi

Barcha professor o'qituvchilar

KUN TARTIBIDA:

1. "Oliy matematika" kafedrasini o'qituvchisi N.Abdurashidovning "Algebra va sonlar nazariyasi" fanidan "Diskret matematika va matematik mantiqning umumiy tushunchalari.Mulohaza. Mulohaza va ular ustida amallar" mavzusida ikki soatlik ochiq dars muxokamasi.

ESHITILDI:

1-masala. Ushbu masala yuzasidan taqrizchi f.m.f.n., dotsent I. Abirayev so'zga chiqib, kafedra o'qituvchisi N.Abdurashidovning 11MI-2023 guruhida "Algebra ba sonlar nazariyasi" fanidan "Diskret matematika va matematik mantiqning umumiy tushunchalari. Mulohaza.Mulohazalar ustida amallar" mavzusida o'tgan ikki soatlik ochiq Amaliy mashg'ulot darsi o'tganligi va ochiq ma'ruza o'z vaqtida belgilangan auditoriyada hamda e'lon qilingan mavzuda bo'lganligini aytib o'tdi. Guruhda jurnal bo'yicha 11MI-2023-guruhda 26 nafar talaba qatnashdi. Ochiq ma'ruzada har ikki guruhdan jami 26 nafar talaba qatnashganligi, ya'ni darada talabalar 100% ekanligini haqida professor-o'qituvchilarga ma'lumot berildi. Ochiq dars belgilangan texnologik xaritada amal qilgan holda o'tilganligini va grafikli taqdimot asosida qiziqarli o'tganligini aytib o'tdi. Kafedra o'qituvchisi N.Abdurashidov darsni interfaol tarzda olib bordi. Tarqatma materiallar va slaydlardan unumli foydalandi, ya'ni pedagogik texnologiyalardan foydalandi. O'tilgan mavzu fan dasturi asosida ishlab chiqilgan ishchi o'quv dasturiga mos ke'adi. Kafedra o'qituvchisi N.Abdurashidovning pedagogik mahorati ijobiy baholandi. Barcha talabalarning daftari mavjud bo'lib, ularni darsga bo'lgan qiziqishlari o'ta kuchli ekanligi kuzatildi. Kafedrada N.Abdurashidovning ochiq ma'ruza darsi kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan muhokama qilindi va ushbu ochiq dars kafedraning yosh o'qituvchilariga kelgusida pedagogik faoliyatlarida saboqli dars bo'lganligini aytib o'tishdi va o'z fikrlarini bildirishdi. Darsda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars yaxshi o'tkazildi. Dars yekunida talabalardan so'ralganida, haqiqatan ham ushbu ochiq ma'ruza darsi " Diskret matematika va matematik mantiqning umumiy tushunchalari. Mulohaza.Mulohazalar ustida amallar" mavzusi asosida to'g'ri tanlanganligi va samarali, tushunarli o'tganligini aytib o'tishdi va o'zlarining ijobiy fikrlarini bildirishar ekan, o'z o'rinda fan o'qituvchilariga minnatdorchilik ham bildirishdi.

Kafedra yig'ilishi yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagicha
QAROR QABUL QILADI

1. pfd (PhD) M.Sobirovaning kafedra o'qituvchisi N.Abdurashidovning 2-kurs 11MI-2023 guruhida Algebra va sonlar nazariyasi fanidan "Diskret matematika va matematik mantiqning umumiy tushunchalari. Mulohaza.Mulohazalar ustida amallar " mavzusida o'tgan ochiq darsi to'g'risida bildirgan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin
2. Kafedra o'qituvchisi N.Abdurashidovning 2-kurs 11MI-2023-guruhida Algebra va sonlar nazariyasi fanidan " Diskret matematika va matematik mantiqning umumiy tushunchalari. Mulohaza.Mulohazalar ustida amallar" mavzusida o'tgan ochiq darsi ijobiy deb topilsin.
3. Kafedra o'qituvchisi N.Abdurashidovga dari davomida yo'l qo'yilgan kamchiliklari yuzasidan o'z ustids ishlash vazifani yuklatilsin

Yig'ilish raisi

Yig'ilish kotibi

(PhD),Dotsent M.R.Sobirova
o'qituvchi E.E.Eshtemirov

